

**YIRTQICH QUHLARNING BIOLOGIYASI****Xalimova Moxigul Rustamovna****Tur'unova O'g'iloy Ravshanbek qizi***Qo'qon davlat pedagogika instituti talaba*

**Annotatsiya:** *Qushlar tabiatda eng ko'p tarqalgan sinf hisoblanadi. Ular turli ekologik muhitlarda tarqalgandir. Qushlar uchish qobiliyatiga ega bo'lganligi uchun yer yuzini turli qismlarida tarqalgan. Shuning uchun ularning miqdor zichligi yuqori va xilma xil, ko'p turlarga ega. Ular orasida yirtqich turlar ham muhim o'rinni egallaydi*

**Kalit so'zlar:** *tur, turkum, kunduzgi va tungi yirtqich qushlar, kalxat, tasqara, yappaloqqush, boyo'g'li, ukki*

Hayvonot dunyosi ichida qushlar eng keng tarqalgan guruh hisoblanadi. Qushlarning 9000 dan ortiq turlari, 35-40 turkumi mavjud va ular qutblardan ekvatorgacha bo'lgan butun sayyora bo'ylab tarqalgan. Qushlar ichida yovvoyi holda erkin yashaydiganlari ko'p uchraydi. Qushlarning keng tarqalganligi va ko'p miqdorda oziqlanishi tufayli tabiatga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ular turli ekologik muhitlarda tarqalgan. Qushlar sinfining eng muhim turkumlaridan biri bu yirtqich qushlardir.

Yirtqich qushlar, asosan, umurtqali hayvonlar bilan oziqlanadi. Ularning tana tuzilishi va xatti-harakati o'ljani qidirib topish va ushlab olishga moslashgan. Xususan, uzun va o'tkir tirnoqlarining uchi ilmoqqa o'xshash qayrilgan bo'lib, o'ljani ushlab va o'ldirishga moslashgan; qisqa baquvvat va uchi pastga qayrilgan tumshug'i esa o'ljasi etini yulib olishga imkon beradi. Yirtqich qushlarning ko'zi o'tkir bo'lganidan o'ljasi uzoqdan payqab oladi. Yirtqichlar juft bo'lib yashaydi. Yirik qushlarning jufti butun hayoti davomida saqlanib qoladi. Ular daraxtlarga va baland qoyalarga uya qurib, jish jo'ja ochadi. Yirtqich qushlar kunduzgi yirtqichlar va yappaloqqushlar turkumlariga bo'linadi. O'rta Osiyo hududida kunduzgi yirtqichlardan qora kalxat, miqqiy, tasqara, jo'rchi, burgut, qarchig'ay va boshqalar uchraydi. Qora kalxat vohalar, to'qaylar va tog'larda, xullas, daraxtlar bo'lgan hamma joyda uchraydi. Uchib borayotgan kalxatni ayri dumiga qarab oson bilib olish mumkin.

Kalxat Markaziy Afrika va Janubiy Osiyoda qishlaydi, mart oylarida uchib kelib, daraxtlarning shoxiga in quradi. Kalxat juda foydali qush bo'lib, ko'pincha baqalar, kemiruvchilar, har xil hasharotlar, shuningdek, kushxonalarining tashlandiqlari va o'laksalar bilan oziqlanadi; mayda qushlarni ham tutib yeydi. U havoda baland uchib, o'lja axtaradi.

Tasqara — o'lkamizda uchraydigan qushlarning eng yirigi. Tanasining uzunligi 1,5 m ga, qanotlarini yozganda kengligi 3 m gacha yetadi; uning og'irligi 6 — 12 kg, boshi va bo'ynidagi patlari juda siyrak bo'ladi. Tasqarani uchganida keng va uzun qanotlaridagi oqish patlarini panjasimon yozilishiga qarab bilish mumkin.

U havoda uzoq vaqt qanot qoqmasdan ucha oladi, lekin yerda beso'naqay qadam tashlaydi.

Tasqara hayvonlarning o'laksasi bilan oziqlanadi. Sayhonlik ustida soatlab uchib, o'laksa izlaydi. Tasqaraning tirnoqlari kuchsiz bo'lganidan tirik hayvonlarga hujum qilolmaydi. Lekin juda kuchli, uchi qayrilgan tumshug'i bilan hayvonlar terisini yirta oladi. Ko'pchilik kunduzgi yirtqichlar zararkunanda kemiruvchilar va hasharotlarni qirib, qishloq xo'jaligiga foyda keltiradi. Boshqalari esa ko'pincha kasal va qari hayvonlarni yo'q qilib, boshqa hayvonlarning kasallanishi oldini oladi; hayvonlar naslini sog'lomlashtirishga yordam beradi.

Yapaloqqushlar -Tunda hayot kechirishga moslashgan yirtqichlar. Ularga faqat qorong'u tundan so'ng ov qiladigan yapaloqqushlardan ukki, boyo'g'li, boyqushlar kiradi. Yapaloqqushlar tumshug'ining qayrilgan, tirnog'i o'tkir, tirik o'ljani tirnog'i bilan tutishga imkon beradi. Ularning ko'zlari katta. ko'z qorachig'i keng ochiladi. Shuning uchun g'ira-shira yorug'likda ham mayda hayvonlarni ko'ra oladi. Sezgir quloqlari esa tunda shitirlagan tovushni ham ilg'ab oladi. Patlari g'ovak va yumshoq

bo'lganida uchganda ovoz chiqarmaydi. Tunda yirtqichning yuzi yapaloq yuraksimon bo'lgani uchun ham bu qushlarni yapaloqqushlar turkumiga kiritilgan.

Ukki — yapaloqqushlar orasida eng yirigi. Boshining ustida quloqqa o'xshash ikki to'p pati dikkayib turadi. Ukki ko'proq turli kemiruvchilar bilan oziqlanadi; ba'zan o'rgimchaklar va ayrim qushlarni ham tutib yeydi.

Boyo'g'li — ukkiga nisbatan ancha kichik. Kechqurunlari simyog'och yoki daraxtlarning qurigan shoxida o'tirib olib, o'lja poylaydi. Bu qush o'simliklarga ziyon keltiradigan qo'ng'iz, chigirtka va kemiruvchilarni qirib, juda katta foyda keltiradi.

Xulosa shuki tabiatda barcha hauvonlarni o'z o'rni bor. Qushlarning miqdor zichligi kamaysa hashorotlar va kemiruvchilarning soni ko'payadi.

Qushlarni muhofaza qilish ularni bezovta qilmaslik va uyasini buzmaslikdan iborat. Qushlarni dalalarga jalb etish uchun dalalar chetida daraxtlar ekiladi. Qor ko'p yog'gan qish kunlari mayda qushlar uchun daraxt shoxlari orasiga donxo'raklar o'rnatilib, don-dunlar sepib qo'yiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.Ahmedov M.H., Oripov J., Zokirov I. Farg'ona vodiysining uhofazaga olingan hayvonlari. – Farg'ona, "Universitet"2008. – 74 b.

2.Bogdanov O.P. O'zbekiston hayvonlari. -T.: O'qituvchi, 1983. 315 b.

3. Экология и поведение птиц // Сб. науч. тр. Отв. ред.В.Д.Ильичев. -М.: Наука. 1988. - 248 с.

4.Богданов М. Н. Очерки природы хивинского оазиса и пустыниКизил-Кум, Ташкент, 1882. 274-с.

5.Egamberdiyev M.X., Shermatova Yo.V. “Yirtqich qushlar va ularning ahamiyati”// “XXI ASR – INTELEKTUAL AVLOD ASRI” shiori ostidagi hududiy ilmiy – amaliy konferensiyasi materiallari. – Namangan,2014. 40-41-b.